



**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINI MA’NAVIY
TARBIYALASH: ZAMONAVIY KO’NIKMALAR VA USULLAR**

Raximov Sherbek Kamolovich

O’zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Maxsus fanlar sikli o’qituvchisi, mayor

Annotatsiya: Mazkur maqolada O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlarini xalqchil va professional jihatdan tayyorlash, aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquqlarini muhofaza qilish kabi masalalarga qaratilgan keng qamrovli islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada ichki ishlar organlarining yangi konsepsiyalari, qonunchilikdagi o’zgarishlar, xodimlarning kasbiy madaniyatini oshirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishning yangi mexanizmlari va aholining ishonchini oshirish borasidagi chora-tadbirlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ichki ishlar organlari, islohotlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, kasbiy madaniyat, konsepsiya, kodeks.

Annotation: This article analyzes the comprehensive reforms related to the professional and people-oriented training of the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan, protecting the rights and freedoms of citizens, ensuring the rule of law in society, and safeguarding human rights. The article also highlights the new concepts of internal affairs bodies, legislative changes, the enhancement of professional culture among employees, new mechanisms for organizing spiritual and educational work, and measures to increase public trust.

Keywords: Internal Affairs Bodies, Reforms, Spiritual and Educational Work, Professional Culture, Concept, Code.

KIRISH

Har bir jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlashda ichki ishlar organlari muhim o’rin tutadi. Ularning faoliyati faqat qonunlarni bajarish va huquqbazarliklarni oldini olish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatdagi ma’naviy



qadriyatlarni himoya qilish va rivojlantirishga ham qaratilgan. Ichki ishlar organlari xodimlari, o‘zaro ishonch, adolat va hurmatga asoslangan axloqiy normalarga bog‘liq bo‘lib, ularning ma’naviy kamolotini shakllantirish har tomonlama ahamiyatga egadir. Shu bois, ichki ishlar organlaridagi xodimlarni ma’naviy tarbiyalash zamonaviy dunyoda muhim vazifa va chaqiriqlarning biridir.

Zamonaviy jamiyatda, axloqiy tushunchalar va ma’naviy qadriyatlar juda muhimdir, chunki ichki ishlar organlari xodimlari jamiyatdagi huquqbuzarliklarni tushunish, ularga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish va muammolarni hal etishda o‘zlarining axloqiy va ma’naviy negizlariga tayangan holda ish olib borishlari kerak. Shuning uchun, xodimlarning ma’naviy tarbiyasini oshirish uchun yangi ko‘nikmalar va usullarni joriy qilish zarur.

Bugungi kunda, ma’naviy tarbiyalash jarayonida psixologiya, pedagogika va axloqni rivojlantirish sohasidagi ilmiy yutuqlardan foydalanish mumkin. Ichki ishlar organlari xodimlari, faqat ish vaqtida emas, balki shaxsiy hayotlarida ham ma’naviy nuqtai nazardan yetuk va barkamol shaxs bo‘lishlari kerak. Buning uchun ichki ishlar organlari sohasidagi xodimlarning ma’naviy kamolotini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy usullar, metodlar va treninglar muhim ahamiyatga ega.

Keng ko‘lamli islohotlar ichki ishlar organlarini mamlakatimizda tinchlikni va osoyishtalikni ta’minlash, fuqarolar huquqlarini himoya qilish hamda huquqtartibotni mustahkamlashda asosiy vazifalarni bajaruvchi muhim tizimga aylantirdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha: “**Agar davlatning asosi qonun bo‘lsa, uni amalda amalga oshiradigan eng samarali tizim ichki ishlar sohasi hisoblanadi”**[1].

Maqlada, ichki ishlar organlari xodimlarini ma’naviy tarbiyalashda zamonaviy usullar va ko‘nikmalarning ahamiyati, ularning professional va shaxsiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi haqida so‘z yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Ichki ishlar organlari xodimlarini ma’naviy tarbiyalash, jamiyatdagi huquqiy tartibni saqlash va axloqiy normalarga amal qilishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ichki ishlar organlari xodimlarini ma’naviy tarbiyalash sohasida ilmiy



tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar mavjud bo'lib, ular xodimlarning axloqiy va ma'naviy darajasini oshirishga qaratilgan zamonaviy usullarning qo'llanilishini ko'rsatadi. Bu maqolada, olimlarining adabiyotlari asosida ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy tarbiyalashdagi zamonaviy ko'nikmalar va usullar tahlil qilinadi.

Ma'naviy tarbiyaning nazariy asoslari

Ma'naviy tarbiyaning nazariy asoslarini o'rganishda, O'zbekistonda pedagogika va psixologiya sohasida katta ishlarni amalga oshirgan olimlar orasida Sh.M.Niyozovning "**Ma'naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari**" (2012) nomli asarini yodga olish kerak. Muallif, axloqiy va ma'naviy kamolotga ega shaxsni tarbiyalashning asosiy prinsiplari va usullarini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, ichki ishlar organlarida xizmat qiluvchi xodimlarning ma'naviy tarbiyasi, nafaqat qonunlar va qoidalarga amal qilish, balki insonparvarlik va insof kabi qimmatlar asosida shakllanishi kerak. Buning uchun, pedagogik va psixologik usullardan foydalanish zarur.

Ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy tarbiyalash usullari

Ichki ishlar organlari xodimlarini ma'naviy tarbiyalashda zamonaviy usullar va ko'nikmalarni joriy qilish zarur. H.Yu.Karimov va Sh.F.G'afurovning "**Huquqni muhofaza qilish organlarida ma'naviy tarbiya**" (2017) asarida, ichki ishlar organlaridagi xodimlarni ma'naviy tarbiyalashga qaratilgan zamonaviy pedagogik va psixologik metodlar tahlil qilingan. Ular, axloqiy treninglar, guruhli muhokamalar va mavzuli seminarlarning samaradorligini ta'kidlaydilar. Ushbu metodlar xodimlarning kasbiy faoliyatini yangi va innovatsion shaklda rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'naviy axloqni mustahkamlash

Ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy axloqini mustahkamlashda umumiy axloqiy va kasbiy standartlarning ahamiyatini o'rganish zarur. Q.R.Abdurazzoqovning "**Huquqni muhofaza qilish organlarida axloqiy kamolot va professional muammolar**" (2017) asarida axloqiy kamolotning ichki ishlar xodimlarining professional faoliyatiga ta'siri ko'rib chiqilgan. Ma'lumki, yuqori



axloqiy standartlarga ega bo‘lgan xodimlar nafaqat o‘z ishini muvaffaqiyatli bajaradi, balki jamiyatda o‘z modelini ko‘rsatadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini ma’naviy tarbiyalashda zamonaviy usullar va ko‘nikmalarning qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ma’naviy tarbiyalashning samarali usullari jumlasiga psixologik treninglar, axloqiy treninglar, interaktiv ta’lim vositalari va internet platformalari kiradi. Ushbu usullar ichki ishlar organlarining xodimlarining shaxsiy va professional rivojini ta’minalash, ularning ish samaradorligini oshirish va jamiyatdagi tartibni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

METODOLOGIYA

Ichki ishlar organlari xodimlarini ma’naviy tarbiyalashdagi tadqiqotlar uchun asosiy metodologiya faoliyat va shaxsning ma’naviy kamolotini tahlil qilishga qaratilgan. Metodologik yondashuvda quyidagi prinsiplar va usullar ishlatilgan:

Pedagogik usullar: Ma’naviy tarbiyalashda pedagogika va psixologiyaning asosiy prinsiplariga asoslanish, masalan, shaxsiy rivojlanishga qaratilgan individual va guruhli treninglar, axloqiy-etika o‘quvlarini o‘tkazish.

Psixologik yondashuv: Xodimlarning emotsional va axloqiy holatini baholash uchun psixologik testlar, stressga qarshi muvozanatni saqlash treninglari, psixologik konsultatsiyalar o‘tkazish.

Metodologiya, ilmiy tadqiqotlar orqali, ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy kamolotini rivojlantirishdagi samarali usullarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq qilishga qaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning organlari katta va murakkab tuzilishga ega. Ularning asosiy vazifasi – qonun ustuvorligini ta’minalash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashishdir. Inson huquqlari, uning hayoti, erkinligi va sha’ni – O‘zbekistonda oliy qadriyat hisoblanadi. Shu maqsadda, 2016-yil 16-sentabrda “**Ichki ishlar organlari to‘g‘risida**”gi qonun qabul qilindi [2].



Ichki ishlar organlarining faoliyatini yaxshilashda parlament va jamoatchilik nazoratining yangi mexanizmi joriy etildi. Endilikda ichki ishlar organi boshlig‘idan tortib, profilaktika inspektorlariga qadar barcha mansabdorlar xalq oldida hisobot berishadi, bu esa aholining ishonchini oshiradi. Xalqning muammolarini tinglash va hal qilish tizimi yaratilib, samarali ishlashga imkon yaratildi.

Shuningdek, Respublika ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining intellektual va kasbiy darajasini oshirish, ularga ortiqcha vazifalar yuklanishini bartaraf etish uchun sohaviy xizmatlar o‘rtasida vazifalar aniq belgilanib, samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yana-da takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishma tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori bilan **“Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish Konsepsiysi”** tasdiqlandi [3].

Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiysi ushbu sohadagi ishlarning ustuvor yo‘nalishlari va asosiy prinsiplari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, avvalo, ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan barcha xodimlar va harbiy xizmatchilarining umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma’naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, kasbiga nisbatan sadoqat va yuqori mas’uliyat hislarini oshirish bilan bog‘liq vazifalarni belgilab beradi.

Konsepsiya milliy va xalqaro huquq normalari asosida ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish tizimini yana-da takomillashtirish, xodimlarning ma’naviy salohiyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, ularning ongida Vatan taqdiri hamda kelajagi uchun daxldorlik tuyg‘ularini mustahkamlash bilan bog‘liq faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi.

Xodimlarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish, faol hayotiy pozitsiyasi, intellektual salohiyatini, Ona Vatan taqdiriga bo‘lgan mas’uliyatini mustahkamlash, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetini kuchaytirish, ularni fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini sadoqat va fidoyilik bilan



vijdonan bajarishga yo‘naltirish bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish ushbu konsepsiyaning asosiy mazmunini ifodalaydi.

Konsepsiyaga ko‘ra, ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar “**Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliv burchimiz!**” konseptual g‘oyasi asosida tashkil etilib, unda davlat mustaqilligini himoya qilish, huquqtartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta’minalash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi [3].

Mazkur g‘oyaning asosiy mazmun-mohiyati fuqarolarning tinchligi va mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minalash uchun har qanday huquqbuzarlikka qarshi kurashishda o‘z jonini ayamaydigan, vatanparvarlik, fidoyilik, sadoqat va halollik fazilatlariga ega xodimlarni shakllantirishdan iborat.

“Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish Konsepsiysi” ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy va intellektual salohiyatini oshirish, ularda vatanparvarlik, sadoqat va mas’uliyat hislarini kuchaytirishga qaratilgan. Konsepsiya, shuningdek, xodimlarni huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda, fuqarolik burchini vijdonan bajarishda va g‘oyaviy immunitetini mustahkamlashda tayyorlashni maqsad qiladi. Asosiy g‘oya – davlat mustaqilligini himoya qilish, huquq-tartibotni mustahkamlash va jamoat xavfsizligini ta’minalashda fidoyi va halol xodimlarni shakllantirishdir.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi **17-maqsadi**: “**Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish**”, deb nomlanib, unda “**Ichki ishlar organlarini xalqning ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish hamda aholi bilan maqsadli ishlashga yo‘naltirish**”, vazifasi belgilangan [4].

Bu xodimlarning o‘z vakolatlarini bajarishda professionalizmning o‘zi yetarli emasligini, ma’naviy va ma’rifiy tayyorgarlik muhim vosita sanalishini bildiradi. Ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviyati, deganda ular o‘zini xalq vakili, deb bilgan holda, ona Vatan tuprog‘ini, suvini, musaffo osmonini va jamiki boyliklarini



ko‘z qorachig‘iday asrashi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini vijdonan, imon-e’tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg‘arazlik, hurmat, fidoyilik va aqliy teranlik bilan himoya qilishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olami majmuini tushunishi kerak.

Zamon ichki ishlar tizimidagi ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan tinglovchi va kursantlarni sobitqadam, yuksak ma’naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashaydigan mutaxassis qilib yetishtirish,adolat,halollik,dovyuraklik hamda haqiqiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e’tibor qaratishni, kasbiy, ruhiy va jangovar tayyorgarligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarishni talab etmoqda [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o‘zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta’minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyshtalikni yana-da mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvarda **“Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzillaga aylantirish va aholi bilan yana-da yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-sonli Qarori qabul qilindi [6].**

Mazkur qarorga ko‘ra ichki ishlar organlari xodimlarini **“Inson qadri uchun”** tamoyili asosida davlatning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, o‘z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligidagi erishish;

ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas’uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume’tirof etilgan odob- axloq normalariga so‘zsiz amal qilish tuyg‘usini shakllantirish;



ichki ishlar organlarida sodir etilishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya xatti-harakatlar, suiiste’molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish, huquq-tartibot tizimi obro‘siga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirmaslik belgilab berildi.

“Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzillaga aylantirish va aholi bilan yana-da yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-10-sonli Qarorning 1-ilovasiga asosan **“Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksi”** tasdiqlandi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi Kodeksining asosiy maqsadi xodimlarning xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, chuqur mas’uliyat va tashabbuskorlik hissi bilan yondashish, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik va o‘z kasbiga sadoqattuyg‘usini shakllantirish, sodir etilishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya xatti-harakatlar, suiiste’molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olish haqida kasbiy bilimlarni berishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-sonli Qarori ichki ishlar organlarini xalqchil va professional tuzilmaga aylantirish, shuningdek, aholi bilan yaqin hamkorlikda ishlashni ta’minlashga qaratilgan. Qaror, ichki ishlar organlari xodimlarini Vatan va xalq oldidagi burchiga sodiq, ma’naviy-axloqiy fazilatlar bilan tarbiyalash, ularning xizmat intizomi va kasbiy madaniyatini oshirishni maqsad qiladi. Bundan tashqari, korrupsiya va suiiste’molchilikka qarshi kurashish, jamiyatda odob-axloq normalariga rioya qilishga e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, IIV Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta’minlash departamentining faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, bu nomzodlarni tanlashdaadolat, yosh rahbarlar zaxirasini shakllantirish, jangovar tayyorgarlikni oshirish, ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli va uzlucksiz tashkil etish kabi masalalarni qamrab oladi. Bularning barchasi ichki ishlar organlarining samarali faoliyatini ta’minlashga qaratilgan.



So‘nggi yillarda O‘zbekiston ichki ishlar organlarini yanada xalqchil va professional tuzilmaga aylantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasida ichki ishlar organlari fuqarolar huquqlarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va qonun ustuvorligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydigan tizimga aylangan.

Shuningdek, ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar tayyorlash tizimi takomillashmoqda. Xodimlar kasbiy madaniyat, xizmat intizomi, va vijdanan ishlash kabi tamoyillar asosida tarbiyalanmoqda. Korrupsiya va suiiste’molchilikka qarshi kurashish, shuningdek, shaxsiy tarkibning jangovar tayyorgarligini oshirish va ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Ichki ishlar organlari xodimlarini ma’naviy tarbiyalashga qaratilgan zamonaviy ko‘nikmalar va usullarning amalga oshirilishi birqatar ijobiy natjalarga erishishga yordam berdi. Bu natjalar, o‘z navbatida, ichki ishlar organlarining samaradorligini, xodimlarning axloqiy va kasbiy darajasini oshirishga qaratilgan uzlusiz jarayonning ahamiyatini namoyon etadi. Kelgusida bu sohada qo‘srimcha rivojlanish uchun yanada aniq va samarali usullar ishlab chiqish zarur.

Xodimlarning ma’naviy-axloqiy savodxonligini oshirish. Zamonaviy treninglar, psixologiya va pedagogika asosida tashkil etilgan ma’naviy tarbiyalash usullari natijasida ichki ishlar organlari xodimlarining axloqiy savodxonligi va faoliyatdagi mas’uliyat hissi aniq oshdi. Xodimlar o‘z kasbini va uning ahamiyatini to‘g‘ri tushunib, jamiyatga bo‘lgan xizmatlarining kerakli darajadagi aniqligi va mas’uliyatini his qilishmoqda.

Vatanparvarlik va sadoqat tuyg‘ularining kuchayishi. Ichki ishlar organlaridagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarning asosiy maqsadi sifatida, vatanparvarlik va sadoqat tuyg‘ularining yuksalishi ko‘zlangan edi. Odatda, bu kabi tarbiyalash usullari fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va ichki ishlar organlarining xalq bilan muloqotda ishonchni oshirishga olib keladi.

Qat’iy xizmat intizomi va kasbiy madaniyatning oshishi. Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat intizomi va kasbiy madaniyatida ijobiy o‘zgarishlar



kuzatildi. Zamonaviy usullar, psixologik treninglar, maxsus dasturlar xodimlarning faoliyatini professional darajada olib borish va muammolarni hal qilishda yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi. Bu natijalar, ichki ishlar organlarining ish tartibini yaxshilash va xolislik, haqiqiy adolatni ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaga qarshi immunitetni mustahkamlash. Ichki ishlar organlaridagi ma'naviy tarbiyalash jarayoni korrupsiyaga qarshi immunitetni kuchaytirishga ko'maklashdi. Xodimlar o'z vazifalariga sog'lom, vijdonan va o'zlarining fuqarolarga ko'rsatgan namunasi orqali adolatlilikni, hurmatni, halollikni jadallashtirishga intilishmoqda. Bu esa o'z navbatida, ichki ishlar organlarining jamiyatdagi nufuzini oshiradi.

Sifatli va muvaffaqiyatli tarbiyalanish tizimi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tartibini uzlucksiz olib borish natijasida ichki ishlar organlari xodimlarini axloqiy-ruhiy savodxonlikning turli yo'nalishlariga mos ravishda tarbiyalashga imkon berdi. Bu holda, ichki ishlar organlariga yangi xodimlarni jalg qilish va ularni keyinchalik nafaqat kasbiy, balki ma'naviy jihatdan ham rivojlantirish uchun muhit yaratish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Xalq bilan ishlash va ishonchning ortishi. Ichki ishlar organlarining xalq bilan yaqin aloqalar o'rnatish va ular bilan ishlash tizimi o'zining ijobiy samarasini ko'rsatdi. Xodimlar, xalq bilan ishlashda, "**Inson qadri uchun**" tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligidagi erishish maqsad qilingan, bu xalqning ichki ishlar organlariga ishonchini oshiradi. Bu esa jamiyatda qonun ustuvorligini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlarining rolini yanada mustahkamlaydi.

Joriy qilinayotgan usullar va metodlar bilan bo'lgan ishlarning kelajakdagagi samaralaridan yanada yuqori natijalar kutish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Umuman olganda, O'zbekiston ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat mustahkamligini, fuqarolar huquq va erkinliklarini samarali himoya



qilishni, shuningdek, huquq-tartibotni ta'minlashni maqsad qilgan tizimli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon ichki ishlar organlarining xalqchil va professional tuzilmalarga aylanishi uchun muhim qadamlardir.

Shu bilan birga, zamonaviy metodlar va usullarning amalga oshirilishi samarali bo'lishini va ahamiyatli natijalarni olishni davom ettirish uchun uzluksiz takomillashtirish va monitoringni talab etadi.

Ichki ishlar organlarini professional tuzilmagan aylantirish borasida quyidagi tavsiyalar muhim ahamiyatga ega:

Ma'lumotni va tarbiyalash usullarini tizimli yo'lga qo'yish. Ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy tarbiyasi va kasbiy savodxonligini yanada oshirish uchun, zamonaviy treninglar, psixologiya va pedagogika asosidagi metodikalar tizimli va uzluksiz shakllantirilishi kerak. Ma'lumot beruvchi materiallar va mashqlar doimiy ravishda yangilanib, amaliy tahlillar asosida ishlab chiqilishi zarur.

Kasbiy madaniyat va axloqiy tayyorgarlikni mustahkamlash. Har bir xodimning kasbiy madaniyati va axloqiy qadriyatları o'ziga xos yo'nalishlarda treninglar va kurslar orqali har qachongiga rivojlantirilishi lozim. Bu, o'z navbatida, xizmatning ko'rsatilgan sifatini va jamiyatda ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Innovatsion texnologiyalar va raqamlashtirishni joriy etish. Texnologiyalarning rivojlanishi, ayniqsa, ma'naviy tarbiyalash sohasida faoliyatni samarali tarzda tashkil qilish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Raqamli platforma va onlayn tarbiyalash jarayonlarini joriy etish, ishlarning sifatini oshirish va ishchi jarayonlarni optimizatsiyalashga yordam berishi mumkin.

Farqlantirilgan psixologik va psixoterapevtik ko'mak. Ichki ishlar organlarining xodimlariga ixtiyoriy psixologik yordam berish imkoniyatlarini oshirish, ularning ma'naviy-ruhiy holatini yaxshilashga, shuningdek, har qanday stress va tajribalarga ta'sir qilishga yordam beradi. Psixologik yo'nalishdagi samarali va manzilli tadbirlarning amalga oshirilishi ko'pchilik muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.



Fuqarolar bilan aloqalarni mustahkamlash. Ichki ishlar organlari xodimlarining fuqarolar bilan ishlash qobiliyatini yanada rivojlantirish va ularni fuqarolarga yangi, o'zgarishlarga javob berish ko'nikmalarini ishlab chiqish muhim. Buning uchun, shahar va hududlarda axborot eshittirish va jamoat tashabbuslariga intilgan holda, tizimli tadbirlar tashkil etilishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy monitoring va baholash tizimini joriy etish. Ichki ishlar organlarining xodimlari uchun belgilangan mavjud ko'nikmalarni va axloqiy huquqiy standartlarni tizimli tarzda baholash va monitoring qilish muhimdir. Bu natijalarga amal qilishda uzlucksiz ko'rib chiqish va tahlil qilish mumkin bo'lgan natijalarni taqdim etadi.

Zamonaviy ko'nikmalar va usullar orqali ichki ishlar organlarining xodimlarini ma'naviy tarbiyalash nafaqat ularning kasbiy savodxonligini oshirish, balki jamiyatga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga ham yordam beradi. Shunday ekan, yanada samarali va barqaror natijalarga erishish uchun, ichki ishlar organlaridagi tarbiyalash va tahsil tizimini doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil 16-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar,
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yana-da takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5050-son qarori. 2021-yil 2-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yana-da yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori. 2023-yil 20-yanvar.



5. Mirziyoyev Sh.M. Ichki ishlar organlari xodimlari bayramida tabrik nutqidan. 2022-yil 25-oktabr.
6. <https://yuz.uz/news/>. Qobilov Sh. Davlat va xalq tayanadigan asosiy ustun – qonun uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim esa ichki ishlar sohasi. 2023-yil. 25-oktabr.